



## KUTUBXONALARDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Tursunboyeva Shodiya**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Texnogen va san'atshunoslik fakulteti

Kutubxona –axborot faoliyati 2- bosqich talabasi

**Aytmova Dilbar**

Ilmiy rahbar

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialli

Kutubxona faoliyati kafedrası dotsenti

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil

Ma'qullandi: 5-may 2026 yil

Nashr qilindi: 6-may 2026 yil

#### KEY WORDS

*sun'iy intellekt, kutubxona, axborot texnologiyalari, foydalanuvchi xizmatlari, raqamli kutubxona, avtomatlashtirish.*

### ABSTRACT

*Kutubxona faoliyatida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati, imkoniyatlari va foydalanuvchi xizmatlarini yaxshilashdagi o'рни tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy kutubxonalar faoliyatida SI asosidagi tizimlardan foydalanishning afzalliklari va muammolari ko'rib chiqiladi.*

Hozirgi davrda sun'iy intellekt kirib kelmagan soha qolmadi hisob. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori kutubxonalar faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim deysizmi, fan va madaniyat sohalarini olasizmi ishlab chiqarishning turfa yo'nalishlarni, nazarda tutasizmi, ijtimoiy boshqaruv yoki saylov jarayonlariga to'xtatlisizmi bularning hammasida sun'iy intellekt faol ravishda ishtirok etayotganligining guvohi bo'lasiz. Bugungi kunda sun'iy intellekt tom ma'noda hayotning barcha jabhalarni o'zgartirayot, isloh qilayotgan fenomenga aylandi. Avvalo "sun'iy intellekt" (ingizcha – Artificial intelligence, ruscha – искусственный интеллект) atamasining hozir amalda qo'llanishi xususida. Bizda bu atama "sun'iy idrok" "sun'iy aql" "sun'iy aql –idrok" shakllarida ham qo'llanib kelinmoqda. Ayni paytda an'anaviy kutubxonalar asta-sekin raqamli muhitga o'tib, foydalanuvchilarga tezkor, qulay va interaktiv xizmatlar ko'rsatishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish kutubxona xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellektning kutubxonalaridagi o'рни. Sun'iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson intellektiga xos vazifalarni bajarish qobiliyatidir.

Kutubxonalarda SI texnologiyalari quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilmoqda: axborotni qidirish va tavsiya qilish tizimlari SI foydalanuvchilarning qidiruv tarixiga asoslanib, mos adabiyotlarni tavsiya etadi. Chatbotlar va virtuel kutubxona foydalanuvchilariga

24/7 xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Ma'lumotlarni avtomatik tasniflash va kataloglashtirish. Katta hajmdagi axborotni tez va samarali tartibga solishga yordam beradi. Sun'iy intellekt kutubxonalarda qo'llash nafaqat axborot izlash va tasniflash jarayonlarini osonlashtiradi balki foydalanuvchilarga tavsiyalar berish ilmiy izlanishlarni takomillashtirish va kutubxona xizmatlarni umumiy samradorligini oshiradi. Nutqni aniqlash va matnga aylantirish texnologiyalari nogironligi bo'lgan foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi. Foydalanuvchi xizmatlarini takomillashtirish imkoniyatlari. Sun'iy intellekt yordamida kutubxona xizmatlarini quyidagi yo'llar bilan yaxshilash mumkin. Har bir foydalanuvchining qiziqishlariga mos tavsiyalar beriladi. Tezkor xizmat ko'rsatish SI asosidagi tizimlar foydalanuvchi so'rovlariga tez javob qaytaradi. Masofaviy xizmatlarni rivojlantirish. Onlayn platformalar orqali kutubxona xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi. Foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilish. SI foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, xizmatlarni yanada takomillashtirishga yordam beradi. Afzalliklar va muammolar afzalliklar: Xizmat sifatining oshishi vaqt va resurslarni tejash Katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali boshqarish. Muammolar: texnik infratuzilmaning yetarli emasligi. Mutaxassislar yetishmasligi Axborot xavfsizligi va maxfiylik masalalari. Sun'iy intellekt texnologiyalarini kutubxonalarda qo'llash foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy kutubxonalar SI yordamida interaktiv, tezkor va foydalanuvchi ehtiyojlariga mos xizmatlarni taqdim etishi mumkin. Shu bois, kelajakda kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishda sun'iy intellekt muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Sun'iy intellektning yana bir imkoniyati tez o'qish texnikasi o'rganishda yordam beradi, yana u kitoblarni tanlashda kitobxon bilan ularning mazmunini muhokama qilishi kishining tanqidiy taffakkurni shakllantirishga yordam berishi mumkin. Kutubxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalarning joriy etilishi ilmiy tadqiqotlar axborot taqdimoti va foydalanuvchi xizmatlarni yanada samrali qilish imkonini yaratadi. Biroq texnologiyalarni joriy qilishda ba'z qiyinchiliklar ham mavjud.

Birinchi navbatda axborot xavfsizligi va foydalanuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini taminlash masalalari dolzarbdir. Sun'iy intellekt samarali ishlashi uchun axborot xavfsizligi bo'yicha ilg'or chora tadbirlar zarur. Shuningdek kutubxona xodimlarning yangi texnologiyalar bilan moslashishlari uchun zarrur treninglar o'tkazish kerak. Kutubxona ishchilari sun'iy intellektni samarali qo'llashga tayyor bo'lishlari uchun ilmiy texnologik o'quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Xulosa qilib aytish mumkinki sun'iy texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishi kutubxonalarning axborot taqdim etilishi saqlash va usullarini fundamental tarzda o'zgartirmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining kutubxonalarda qo'llanilishi yanada rivojlanadi. Hozirku kunda 24/7 ishlaydigan chatbotlar foydalanuvchilarga kerakli ma'lumotlarni tezda topishda yordam beradi, savollarga javob beradi va kutubxona xizmatlari haqida yo'l-yo'riq ko'satadi. SI mantlarni tahlil qilib, avtomatik ravishda bibliografik tavsif yaratadi, bu esa kutubxonachilarning ish yukini kamaytiradi. Audiokitoblar yaratish mantlarni ovozga aylantirish yoki aksincha foydalanuvchi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslar uchun foydalidir. Sun'iy intellekt kutubxonalarni oddiy kitob saqlash joyida zamonaviy interaktiv va intellektual

---

Aytimova, D. Kutubxona axborot muassasalari faoliyatini rivojlantirishda kutubxonachi кадрларнинг roli. <https://hemis.uzdsmi-nf.uz/science/publication-scientifical-edit?id=339>. Pérez, R., & González, E. (2020). Artificial Intelligence Applications in Libraries: Current Trends and Future Directions. *Journal of Library Innovation*, 15(1), 23-37. 415(1), 23-37.

axborot markaziga aylantiradi. U xizmatlarni tezlashtiradi, foydalanuvchilar ehtiyojini chuqur tahlil qiladi va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aytimova, D. A. (2023). Effective Use of Pedagogical Technologies in Teaching Library Studies. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(5), 40–43. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1422>
2. Aytimova, D. Kutubxona axborot muassasalari faoliyatini rivojlantirishda kutubxonachi кадрларнинг роли. <https://hemis.uzdsmi-nf.uz/science/publication-scientific-edit?id=339>
3. Dastin, J. (2021). How AI is Changing the Library Science. *Journal of Digital Libraries*, 13(2), 45-58.
4. Pérez, R., & González, E. (2020). Artificial Intelligence Applications in Libraries: Current Trends and Future Directions. *Journal of Library Innovation*, 15(1), 23-37.
5. Sutherland, J., & Smith, L. (2022). Integrating Artificial Intelligence into Library Services: Opportunities and Challenges. *Journal of Library Management*, 14(4), 89-104.

INNOVATIVE  
ACADEMY